

**“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

1. Keramika buyumlari ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan gips qolip chiqindilari va gips chiqindilaridan qurilish gipsini qayta ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: farg‘ona viloyatidagi keramika sanoati korxonalarida hosil bo‘ladigan gips qolip chiqindilari va boshqa gipsli chiqindilarning hajmi, tarkibi, namligi, ifloslanish darajasi hamda qayta ishlashga yaroqliligi o‘rganiladi. Huddagi korxonalarda yiliga 5–10 ming tonna gips qolip chiqindisi va o‘rtacha 5–10 ming tonna boshqa gips chiqindilari hosil bo‘lishi, qurilish gipsiga bo‘lgan yillik ehtiyoj esa 250–350 ming tonnani tashkil etishi inobatga olinadi; gips qolip chiqindilarini alohida yig‘ish, saralash, metall, keramika, organik va boshqa begona aralashmalardan tozalash, quritish hamda dastlabki maydalashning texnologik talablari ishlab chiqiladi. Chiqindining mineralogik va kimyoviy tarkibi, kristall tuzilishi, erkin va bog‘langan namlik miqdori hamda termik xossalari laboratoriya sharoitida aniqlanadi; saralangan chiqindini jag‘li maydalagichda dastlabki maydalash, sharli tegirmonda mayin tuyish, 150–180 °C haroratda kalsinatsiya qilish, faol holatga keltirish va portlandsement stabilizatsiyasi asosida qayta ishlangan qurilish gipsi olish texnologiyasi yaratiladi. Maydalash darajasi, solishtirma yuza, kalsinatsiya harorati va davomiyligi, sovitish hamda yetiltirish rejimlari optimallashtiriladi; qayta ishlangan gipsning suvga talabi, quyuqlanish muddatlari, mayinlik darajasi, egilish va siqilishdagi mustahkamligi, hajmiy barqarorligi hamda saqlanish xususiyatlari aniqlanadi. Mahsulotning texnologik ko‘rsatkichlari qurilish gipsiga qo‘yiladigan amaldagi standart talablariga muvofiqlashtirilib, 5–7 markali qurilish gipsi olishning maqbul tarkibi va rejimi asoslanadi; yiliga 5 500 tonna gips chiqindisini qayta ishlash quvvatiga ega tajriba-sanoat liniyasining texnologik sxemasi ishlab chiqiladi. Liniya tarkibiga chiqindilarni qabul qilish va saralash, maydalash, tuyish, kalsinatsiya, faollashtirish, sovitish, tayyor mahsulotni saqlash, qadoqlash hamda chang-gazlarni tozalash uskunalari kiritiladi; tabiiy gips xomashyosidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari bilan taqqoslaganda qayta ishlangan gips chiqindisi asosidagi mahsulot tannarxini 50 foizgacha kamaytirish imkoniyati yaratiladi. 5 500 tonna/yil quvvatda tabiiy gipsdan foydalanish xarajatlari 1,54 mlrd so‘m, chiqindini qayta ishlash xarajatlari esa 770 mln so‘m atrofida shakllanishi va yiliga 770 mln so‘m iqtisodiy samara olinishi kutiladi; texnologiyani joriy etish natijasida gips chiqindilarining poligonlarga chiqarilishi keskin kamayadi, tabiiy gips xomashyosiga va uni tashishga bo‘lgan ehtiyoj qisqaradi, mahalliy ikkilamchi xomashyo bazasi yaratiladi hamda keramika korxonalarida aylanma iqtisodiyot tamoyillari joriy etiladi. Loyihaning qoplanish muddati taxminan 1 yilni tashkil etib, 10–15 ta yangi doimiy ish o‘rni yaratiladi; tadqiqot yakunida gips qolip chiqindilarini yig‘ish va saralash reglamenti, qayta ishlash texnologik reglamenti, 5–7 markali qurilish gipsining tajriba namunalari, texnik shart loyihasi, ishlab chiqarish yo‘riqnomasi, sifat nazorati xaritasi, ekologik va mehnat xavfsizligi talablari hamda texnik-iqtisodiy asoslar tayyorlanadi.
---	--

	Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan texnologiya Farg‘ona viloyatidagi keramika buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonada yoki universitetning tajriba-sanoat bazasida sinovdan o‘tkaziladi. Olingan qurilish gipsi akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyada kimyoviy, fizik-mexanik va texnologik sinovlardan o‘tkazilib, undan quruq qurilish qorishmalari, suvoq materiallari va gips buyumlari ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyati baholanadi. Natijalarning amaliyotda foydalanishga yaroqliligi to‘g‘risida ishlab chiqaruvchi korxona hamda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalari bo‘yicha kamida 1 ta ixtiro yoki foydali model uchun talabnoma, texnologik reglament, texnik shart va korxonalar uchun amaliy tavsiyanoma tayyorlanadi. Kamida 2 ta ilmiy maqola, shu jumladan Web of Science yoki Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnalda kamida 1 ta maqola chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar gips qolip chiqindilarini yetkazib beruvchi keramika korxonasi, tajriba-sanoat sinovlarini o‘tkazuvchi ishlab chiqarish subyekti va “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining qo‘llab-quvvatlash xatlari mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.
--	---